

ALISHER NAVOIY IJODIY TAFAKKURI QUDRATI VA JAHON TAMADDUNI

Sulaymonov Mo‘minjon Yusubjonovich,
filologiya fanlari nomzodi, NamDU dotsenti
msulaymon62@mail.ru
93 705 25 55

Xoldorova Gulnoza Husniddinovna,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch
doktoranti
gulnozaholdarova7@gmail.com
99 978 05 22

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning tasavvur va tafakkur olami bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsiyalar haqida so‘z boradi. Alisher Navoiyning asarlari ulkan ilm-fan yutuqlariga ham asos bo‘lgani bu esa Navoiy badiiy tafakkurining bevosita mahsuli ekanligiga urg‘u beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsiya, badiiy tafakkur, tasavvur, badiiy obraz, poetik tafakkur, jom, google-xarita.*

Biz yashayotgan bugungi dunyo innovatsiyalar asri deb ta’riflanadi. Innovatsiya – (inglizcha innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) – ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya...[uz.m.wikipedia.org] Chindan ham hayotimizning har jabhasiga qarajak, soat sayin emas, daqiqa sayin takomillashib borayotgan olam manzarasi tobora hayratimizni oshirishi turgan gap. Olimlarning aytishicha, aqlning bosh belgisi bilim emas, tasavvurdir. Ko‘pchilik daholar tasavvur qilish qobiliyatining kuchliligi bois o‘z davrining yorqin timsollariga aylanishganiga tarix guvoh. O‘ziga xos ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini faqatgina tasavvur boyligigina shakllantirishi mumkin.

Hazrat Alisher Navoiy ham shunday “tafakkur tajribasi”ga ega ulkan shaxs edi. Navoiy dil nigohi bilan olamdagi barcha narsani tasavvur qilgan va voqelikdagi muammolarga yechim qidirgan. Bu oltin qoida shoirning kichik hajmli asarlarida ham, muhtasham asarlarida ham bir xil amal qiladi. Falsafadan ma’lumki, inson tasavvur orqali anglanishi mumkin bo‘lgan ong chegaralaridan ham o‘ta oladi. Tasavvur va taxayyul insonga cheksiz mo‘jizotlar eshigini ochadi. Navoiyga ham xuddi ma’no shu mo‘jizotlar ilohiy kechinmalar va tasavvur qudrati bilan namoyon bo‘lgan bo‘lsa ne ajab!

Shu o‘rinda adabiyotshunoslikda juda keng qo‘llaniladigan yana bir istiloh xayolimizga keladi. Bu obrazli, badiiy tafakkur masalasi. Obrazli fikrlash, tafakkur qilish qobiliyati inson hayotini o‘zgartira oluvchi, kerak bo‘lsa boshqara oluvchi qudratli kuch! Inson tafakkur qilgani sayin miyadagi tasavvur hujayralari shunchalik kuchli bo‘lishi fanda isbotlangan. Alisher Navoiyning tafakkur qila olish qobiliyati

undagi tasavvur dunyosining boyligiga idrok va mushohadalarining teranligiga vosita bo'lgan.

Alisher Navoiy ijodini nafaqat badiiy xususiyatlari, filologik jihatlari, balki Navoiyning me'mor sifatida, musiqashunos sifatida, astronom va rassom sifatida ham keng o'rganilgani va o'rganilayotganligi barchamizga ma'lum. Bu qarashlarning manbai shubhasiz, buyuk adibning muhtasham tafakkur xazinasi hisoblangan asarlaridir. O'zbek mumtoz adabiyotining bebaho durdonlari hisoblangan bu asarlarda kelajak hayotga ishora qiluvchi ilg'or fikrlar, yaqin tarixda qilingan muhim ixtirolar ham mujassam edi.

“Farhod va Shirin” dostonining XXIV bobida Farhodning Xizr bilan uchrashgani va Jamshid jomi haqida so'z boradi. Jamshid jomi butun olamni ko'rsata olish qudratiga ega edi. Keyingi bobda esa Farhod jomning bu sehrlil qudratidan foydalanib, Suqrot manzilini topadi.

*Dedikim: Hozir aylang, Jomi jamni
Ki, el ko'nglidin olsin bu alamni.
Ravoni boribon kelturdilar jom
Ki, andin mushkil ishi topqay saranjom.
Anga qilg'ach nazar ishi kushoyish.
Jahon timsolig'a topdi namoyish...
...Mamolik jilvasidin ko'zni yo'pti
Ki, Yunon mulkin ul jom ichra topdi. [1. B.124]*

Boshqa mamlakatlarning jilvasidan ko'z yumib, o'sha jomdan Yunon o'lkasini qidirib topdi. ...U yerdan nihoyat o'zlari turgan tog'ni ham aniqladi. [1. 414]

Ajabo, Farhodning qo'lida Google xaritaga o'xshash nimadir bordek ko'rinmayaptimi? Hozir istalgan android qurilmadan foydalanib, nafaqat butun dunyoni ko'ra olishingiz, balki o'zingiz turgan joyni aniqlashingiz mumkin. Farhod bugunki til bilan aytganda, jom orqali “lokatsiya”ni aniqlay olgan.

“Fasllar tasviri” berilgan XVII bobda Navoiy:
*Hulal qasr ichra har yon zebi zarhal
Kavokibdek guhar birla mukallal
Ko'runib ko'zga oydindek namudi,
Quyosh zarrishtasidin toru pudi.[1, B.74] – deb yozadi.*

“Qasr ichida har tomonga yoyib qo'yilgan zarhal ipak matolarga yulduzlar monand gavharlar qadalgan edi. Bu matolarning hammasi ko'ziga nurli ko'rinar, go'yo quyoshning oltin ipidan to'qilganday”. Bexosdan ko'z oldimizga hozirda urf bo'lgan shift tasvirlari (nadejniy patalok) kelgan bo'lsa ajab emas.

*Ochib og'zin balo darvozasidek,
Tomug' otashgahi andozasidek.*

Dami o't sochmoq etti oshkoro

Ki, avval tumin qilg'ay muharro [1. B.105]

Dostonning XXII bobida “o‘zi tog‘day, boshi tog‘ tumshug‘iday..burnining teshiklari vahshat tandiriga o‘xshaydi, tandir ham emas neft yonayotgan tandirning mo‘risiga o‘xshaydi”, – deb tasvirlagan qahramon tasavvurimizda dunyoning eng mashhur filmlaridan “Minifors” va “Spiderman” dagi yovuz qahramonlarni yodimizga soladi.

Dostonning XXIII bobida:

Bu suratlarni aylab garchi bejon,

Bularni aylabon surat, ani jon.

Chehib yuz ming bu yanglig' turfa timsol

O'zin ul sho'x o'trusida behol.

Qayu mavzudakim, ul mohpora

Muning shakli qilib bexud nazora. [1. B. 182]

Ta'rif Farhod tomonidan Shirin uchun qurilgan cho‘qqisimon bir qasr haqida. “Qasrning hamma qismi o‘sha bir bo‘lak toshdan taroshlandi, yaxlit edi. Qasrning ayvoniga yuzlab loyihalar yasab, loyiha taqozosiga ko‘ra hammasiga rasmlar sola boshladi. ...Bu suratlarining barchasini u garchi bejon qilib yasagan bo‘lsa ham, lekin bu suratlarining joni Shirinning rasmi edi. Shunday yuz ming ajib timsollarni chiqib, u o‘zini o‘sha go‘zalning ro‘baro‘sida o‘tirgan holda tasvirlagan edi. Qaysi o‘rinda o‘sha mohporaning rasmi chizilgan bo‘lsa, bu o‘zini unga o‘zidan ketib qarab turgan holda tasvirlagan edi”. [1. B. 447]

Tasavvuf nuqtayi nazaridan qarasak, bu juda tushunarli holat: Shirin ilohiy mazhar, Farhod uning jamoli vositasida ishq ilohiyini tuygan. Unga qaragan odamning o‘zidan ketib qolgan holatda tasvirlanishi tasavvuf maslagidan kelib chiqqan. Asarda bu qasrni Chin ustaxonasiday bo‘ldi deb ta’riflanishida ham Chin so‘zining zohiriy va botiniy ma’nosiga albatta ishora bor. Lekin e’tiborimizni tortadigan yana bir masala, tasavvurimizni ishga solsak, Navoiyning bu fikrlari ko‘plab ixtirolarga sabab bo‘lgan. Yaqin tariximizda shunday “oynali xonalar” yaratildiki, kirsangiz har tomonda faqat o‘zingizning aksingiz har xil holatda ko‘rinadi. Yoki dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan shunday mukammal dasturlar borki, yuzingizning o‘zini o‘qib olib, turli ko‘rinishlarda o‘zingizga namoyon qilib bera oladi. Sizga ham Navoiyning yuqoridagi fikrlari bilan Windows operatsion tizimi o‘rtasidagi aloqadorlik sezilyaptimi? Balki, biz ham tasavvur chegaralaridan chiqishga urinayotgandirmiz, tadqiqotimizning boshqa qismlarida bu kabi misollarga yana-da ko‘proq yuzlanamiz. Mana bu jadvaldagi misollar orqali bu kabi ixtirolarga asos bo‘lgan nodir fikrlarni teranroq tasavvur qila olasiz. Inomjon Abdiyevning yozishicha, “Navoiyning hayratomuz ixtirolari” juda ko‘p. [2. B.1-7]

<p>G‘aroyib ko‘p huvaydo bo‘lg‘usidir Bas, anda shakl paydo bo‘l g‘usidir. Ko‘runib har zamone – ko‘zga bir shakl, Ko‘z olg‘och bo‘lg‘usidir o‘zga bir shakl.</p>	<p>ekranda kadrlar bir sekundda 24 marotaba almashadi va jonli tasvir ko‘rinadi. Shakl bu kadrlar desak, ularning almashinuvidan turli-tuman g‘aroyibotlar, jonli suratlar, rangin qiyofalar silsilasi namoyon bo‘ladi. Eng ajablanarlisi, Navoiy bu qurilmani ham o‘z holicha «Oynai jahon» deb nomlaydi. Farhod uzoq Arman o‘lkasining malikasi Shirinning husnu jamolini aynan shu vosita orqali ko‘rib, unga mahliyo bo‘lib qoladi.</p>	<p>Oyina yi jahon</p>
<p>Bo‘lur darvoza ichra oshkoro Temur jismiki, qilmish paykar aro. Erur odamg‘a monand-u mushobih Eshigida temirdin yo qilib zih [1. B. 118]</p>	<p>“Shunda darvozaning ichida temirdan qilingan bir haykal yaqqol ko‘zga tashlanadi. Haykal odamga o‘xshash bo‘lib, qo‘lida temirdan kamalagi bo‘ladi”. [1. B.410]</p>	<p>Temir odam – robot</p>
<p>Poyalar maqdamida bo‘lg‘ay past, Aylagay bir-biri yuziga nishast. Chun sekiz poya qat bo‘ldi tamom, Aylagach shoh o‘z yerida maqom. Yana ul poyalar baland bo‘lg‘ay Taxtidin shoh bahramand bo‘lg‘ay. Kim qayon shoh bo‘lar nishotangez,</p>	<p>Shoh bu taxtga chiqadigan bo‘lsa, pillapoyalar uning qadam qo‘yishi uchun pasayib, bir-birining ustiga yotadi. Shoh shu 8 poyaning hammasini bosib o‘tib, o‘z taxtiga o‘tirgach, u zinalar yana baland ko‘tariladi. Shoh qay tarafga qarab o‘tirishni xohlasa, ozgina ishorat kifoya. Taxt o‘sha tarafga qarab aylanadi».</p>	<p>Eskal ator</p>

	<p>Oz ishorat bilan yugurgay tez. [2. B. 3]</p>		
	<p>Ki har sori lavhe erur ta'biya, Birida yelu birda o't ta'miya.Qilib tunni – yorug', kunni qorong'u, Suvdin – o't yondurub, o'tdin – sepib suv.</p>	<p>«Chohning ikki yoniga yaxshilab qarasa, biriga o't, ikkinchisiga havo deb yozib qo'yilgan. «Farhod va Shirin»dan olingan keying bayt ham unga hamohang jaranglaydi.</p>	<p>Kondi tsio-ner</p>
	<p>Ichinda namudor andoq tilsim, Ki ul hufra kunjida bir ro'y jism. Kishi hay'ati birla junbushnamoy, Ul otashgoh ichra haroratfizoy. Yasab olida dam bila ko'raye, Hamul ko'ra jismida moshuraye. Chu ul ko'rau damg'a aylab sitez, Bu moshura nafxi qilib shu'la tez.</p>	<p>Satrlarning nasriy bayoni shunday: «Tilsim chuqurning bir burchagiga joylashtirilgan bo'lib, ko'rinishidan odamning gavdasiga o'xshaydi. O'sha kishining haybatiga o'xshagan tilsimning qaynashidan o'txonada harorat hosil bo'ladi. O'shaning yonida bir dam bilan qo'ra bor, shu qo'raga havo beradigan bir nay o'rnatilgan. Shu dam bilan qo'raning haligi nayi orqali puflanib, uning ichidagi olov bilan tutashtiriladi».</p>	<p>Motor dvigatel</p>
	<p>Nega tarking etmay, ey charxki: shomu axtaringdin — Qarodur yuzing, valekin... oq erur yuzingda xoling!..</p>	<p>Mazkur baytning ikkinchi misrasida fototasvir ibtidosi — negativ ko'rinishlar (oq rangning qora, qora rangning oq bo'lib ko'rinishi) haqida gapirilayotgandek go'yo</p>	<p>fotoa pparat</p>
	<p>Xil'atim to aylamish jonon qizil, sarig', yashil, Shu'lai ohim chiqar har on qizil, sarig', yashil. Shishadek ko'nglimdadur gulzori</p>	<p>Ma'lumki, qizil rang taqiq belgisi, yor dastlab oshiqning sevgisini rad etadi, noz qiladi. Sariq rang tayyorgarlik, oshiqning rangi sarg'ayib fig'oni ko'kka o'rlayvergach,</p>	<p>Sveta for</p>

<p>husning yodidin, Tobodoning aksidek alvon qizil, sarigʻ, yashil</p>	<p>jononaning koʻngli ham unga iliy boshlaydi. Yashil rang bu yoʻl ochiq degani. Gʻazalda ham yor turfa rang-lardagi kiyimlarda koʻrinish berib, oshiqning koʻnglini ezadi. U yashillikka burkanganda vasl ayyomi boshlanadi.</p>	
<p>Borib tushti aʻdo arosigʻa chust, Azim un chiqordi tegib yerga rust. Degan toʻrt ish tutti andin vujud: Sadou afan, is bila oʻtu dud. Sado botil etti fusunlarni pok. Oʻti kuydurub qalʻani qildi xok. Fusungar yuzin dudi etti qaro, Isi qoʻymadi nukta xotir aro.</p>	<p>«Koptoksimon qurol osmonga uchib, dushmanning boshiga yetdi va yerga qattiq tegib, portladi. Undan dahshatli sado chiqdi. Yana sarkash oʻt, qop-qora tutun va badboʻy hid chiqardi. Sado sehlarni tamoman botil qildi, yemirdi. Oʻt hammayoqni kuydirib, qalʻani xarob ayladi. Tutun sehr-garlarning yuzini qoraytirdi. Hid ularning miyasidagi xotirani yoʻqotdi».</p>	<p>Kimy oviy qirish quroli</p>
<p>Qilib suv tubin koʻrmak andishaye, Hamul hikmat ahli yasab shishaye. Kirib shishagʻa ranju tashvir ila, Aning ogʻzin berkitib qiyr ila, Tanobeki, boʻlgʻay necha ming qari, Eshilgan, kelur chogʻda daryo sari Bir uchin qilib shisha davrigʻa rust, Yana bir uchun tutturib elga chust. Bu yangligʻ qilib choʻkti daryo</p>	<p>«Suv tubin koʻrish orzusi (Iskandarda) tugʻildi. Olimlar tez orada shishadan bir idish yasadilar. Iskandar xavf-xatar bilan shisha ichiga kirdi. Uning ogʻzini mum va poʻkak bilan mustahkamladilar. Dengiz suvi uni oʻz qaʻriga tortib ketdi. Shunday qilib, suv tubida nomaʻlum boʻlmish butun gʻaroyibotlar boshdan oyoq namoyon boʻldi».</p>	<p>Suvos ti kemasi</p>

quyi, Ani qa'rig'a chekti daryo suyi.		
--	--	--

Yuqoridagi jadvalda biz Alisher Navoiyning cheksiz taxayyulini tadqiq etilgan ayrim namunlarni keltirdik. Yana bir ajablanarli holat: Navoiy o'zining «Favoyid ul-kibar» — «Keksalik foydalari» devonida 45-60 yoshni umrning qishi hisoblaydi. Oltmish yosh haqida gapirganda «jon bermoq» istilohini istifoda etadi. Xo'sh, o'ylab ko'ringchi, Navoiyning ustози Lutfiy 99 yil umr ko'rganida, Navoiyga bu yoshda o'lim haqida gapirish nega kerak bo'ldi ekan?.. [2. B.6]

Bu kabi fikrni Navoiy yana bir asarida aytib o'tgan.

Bukun andinki bor Haqning qazosi

Kuhulat birla shayxuxat arose

Yoshim ellik bavodisin tay etmish

Ne ellik, oltmish haddig'a yetmish. [B.81]

“Farhod va Shirin” dostonida “Favoyid ul-kibar”dagidek yaxlit bir ma'noni ifodalagan, ya'ni oltmish yoshdagi o'lim haqidagi so'zlar Farhodning otasi – Chin xoqoni tomonidan aytilganiga ne deysiz? Bu qiziqarli va hayron qolarli, holat emasmi? Navoiy 60 yoshida chin dunyoga safar qilgani bilan qandaydir mantiqiy bog'liqlik bordek tuyuladi.

Hazrat Navoiyning quyidagi so'zlari xuddi o'zining asarlariga nisbatan ham aytilganga o'xshaydi. Quloqqa kirib joylashib olgan bu durlar qalbga ham kirib, uni xazinaga aylantiradi. Ular qalbnigina limmo-lim to'ldirib qo'ya qolmay, daryoga solsa, daryoni ham to'ldirishga qodir. [1. B.350] Chindan ham Navoiyni o'qiganimiz, o'rganganimiz sari hayratlarimiz kattalashib boraveradi. Agar Navoiyning qarashlarida keltirilgan biror bir nazariya hali ilm-fanda isbotlanmagan bo'lsa, buni ilm-fanning hali-hanuz Navoiy dahosi oldida o'zligidan dalolat deb tushunish mumkin.

Taniqli ingliz jurnalisti Endryu Marr taraqqiyotning bosh g'ildiragi Internetni ham, mobil operatorlarni ham algoritm asosida ishlashiga ishora qilib: “Har gal qo'lingga mobil telefoningni olganingda, unutm! Har bir qo'l telefoni ichida o'zbek bor. Bu allomaning ismi esa – Muhammad al-Xorazmiy! Barchamiz xayolan undan minnatdor bo'lishimiz kerak”, – degan fikrlarni yozgan edi. Biz ham faxr bilan yana shuni ayta olamizki, sun'iy innellekt mahsuli bo'lgan robototexnologiyalarda ham, ulkan binolarning eng muhim qismiga aylangan liftlarning ham, olamni hayratga solishi mumkin bo'lgan Smart televizor, Google Xarita, Windows operatsion tizimi... umuman olganda, so'nggi ilm-fan yutuqlarining barchasi zamirida Hazrat Navoiyning teran tafakkuri va tasavvuri yotibdi deb bemalol ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Abdiyev I. “Navoiyning hayratomuz ixtirolari”. 2013. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/navoiyning-hayratomuz-ixtirolari>
3. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 2- китоб. – Т.: Фан, 2011.
4. Исҳоқов. Ё. Навоий поетикаси. – Тошкент: Фан. 1983.
5. Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поетик талқинлари.// докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2006.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr. 2010
7. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik. – T.: “Tamaddun”, 2019.